

---

## IJTIMOYIY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT



***Bugun ijtimoiy tarmoqlar orqali “Kuzgi ekinlarni ekolmayapmiz, sabab - suv...” sarlavhasi ostida tanqidiy murojaat e'lon qilindi.***

Ushbu murojaatda: - **“Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani Eshonguzar MFY hududidagi Saodat, E’tirof va taxta bozori ortidagi ko’chalar ariqlarida bir oydan beri suv yo’q. Ekinlarimiz suvsizlikdan qurimoqda. Mevalar pishmay to’karmoqda. Kuzgi ekinlarni ham ekolmayapmiz. Surishtirsak, Janubiy Farg’ona kanalida suv yo’q deyishdi. Mutasaddilardan amaliy yordam so’raymiz”** - deya shikoyat qilingan.

Ushbu murojaat yuzasidan Qo’shtepa tumani irrigatsiya va melioratsiya bo’limi mutaxassisleri tomonidan o’rganish ishlari olib borilayotganligini va o’rganishlar nihoyasiga yetgach yana batafsil ma'lumot berilishini ma'lum qilamiz.

**Qo’shtepa tumani hokimligi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook,](#)

2021-09-15 20:33:32